

O'ZBEK OLIMLARINING PSIXOLOGIYA HAQIDAGI QARASHLARI

Jardamova Marxabo Axmadaliyevna
Ohangaron tumani MMTB ga qarashli
18-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek olimlarining psixologiya faniga qo'shgan hissasi, ularning psixologik qarashlari va ilmiy yondashuvlari yoritiladi. Shuningdek, psixologiyaning rivojlanishida milliy maktabning shakllanishi va uning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar:Psixologiya, o'zbek olimlari, shaxs, tarbiya, tafakkur, milliy psixologiya, pedagogik psixologiya, ilmiy qarashlar.

KIRISH

O'zbek psixologiya maktabining shakllanishi va rivojlanishida bir qator olimlar va pedagoglarning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Ularning tadqiqotlari inson psixikasi, shaxs rivojlanishi va ta'lim-tarbiya jarayoniga oid muhim nazariy va amaliy xulosalarni o'z ichiga oladi. O'zbek olimlarining psixologik qarashlarida shaxsning ijtimoiy muhit, tarbiya va ta'lim jarayonidagi rivojlanishi asosiy o'rinda turadi. Ular inson psixologiyasini jamiyat bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga katta e'tibor qaratganlar. Milliy psixologiya rivojida Maqsud Qodirov, E.G'oziev kabi olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega. Ular shaxs psixologiyasi, ta'lim psixologiyasi va yoshlar rivojlanishi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Shuningdek, o'zbek psixologiyasida tarbiya jarayoni va shaxs kamoloti masalalari chuqur o'rganilgan. Olimlar fikricha, bola psixik rivojlanishida oila, maktab va ijtimoiy muhit birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik psixologiya yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlarda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirish masalalari muhim o'rin tutadi.

O'zbek psixolog olimlari shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ham alohida e'tibor berganlar. Ularning qarashlariga ko'ra, insonning psixologik yetukligi uning axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek olimlarining psixologiya haqidagi qarashlari milliy psixologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bo'lib, bugungi kunda ham ta'lim va tarbiya jarayonida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Psixologiyaning yurtimizda fan sifatida rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak shuni ta'kidlab o'tish joizki, u so'ngi o'n yilliklar mobaynidagina shakllanmoqda. Ammo tarixan, umuman psixologiyaning O'zbekiston hududida shakllanishi tahlil qilinsa, uning diniy-

falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o'ziga xos tarzda shakllanib kelganini ko'rish mumkin. Masalan, eramizning II-III asrlarida rivojlangan manixizm (asoschisi Mani) yoki mazdakizm (asoschisi Mazdak) va boshqalar o'z diniy qarashlari tizimida ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat va shaxsning o'ziga xosligi kabi g'oyalarni keng tashviqot qilganlar. Lekin tarix bizga shundan darak beradiki, yaxlit, sistematik ijtimoiy psixologik qarashlar sistemasi umuman bo'lmagan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda o'tkazilayotgan psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan. Jumladan, birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot ham 70- yillarning oxiri 80- yillarning boshida I. Yoqubov tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta'minlovchi sotsial-psixologik omillarni o'rgandi. Tadqiqot natijasida, shu narsa aniqlandiki, oila a'zolarining rollar borasidagi muvofiq o'zaro munosabatlari oilaviy xamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy mojarolar esa, asosan hozirgi zamon o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri N. Sog'inovning o'zbek oilasiga xos bo'lgan nikoh va oila munosabatlari - nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila qurishning o'zbeklarga xos bo'lgan yosh xususiyatlari, yosh o'zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o'rgangan ilmiy ishidir.

N.Sog'inovning to'plagan ma'lumotlari yosh oilalar, mojaroli oilalar va yoshlar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganlar uchun muhim ilmiy yo'l-yo'riqdir. Bundan tashqari, oxirgi yillarda katta guruhlar psixologiyasiga oid qator tadqiqotlar o'tkazildi. Masalan, V.M.Karimovanning o'zbek xotin-kizlari ijtimoiy tasavvurlarining o'zgarishi mexanizmini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti (1987), E. Usmonovning o'zbek ayollarining suitsidal (ya'ni o'z-o'ziga o't qo'yish) xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti (1993), E. No'monovanning o'zbek oilalaridagi reproduktiv ustanovkalarining xususiyatlariga bag'ishlangan, M.Zokirovanning erkak va ayollardagi rollar haqidagi tasavvurlarning o'ziga xosligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqoti, M.Toshpo'latovning o'zbek yoshlaridagi ijtimoiy xulq-atvorning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'ziga xos qirralarini o'rganishga qaratilgan ishlari va boshqalar shular jumlasidandir. Bu tadqiqotlar natijasida yaqin kelajakda yangi etnopsixologik konsepsiya shakllanadi va bu respublikamizdagi ilmiy ishlarning rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

O'zbekistonda psixologlar oldida juda muhim tadqiqot mavzulari mavjudki, ularda hozirgi mustaqillik sharoitida shaxs va turli ijtimoiy guruhlar psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, turli yosh, demografik etnik professional guruhlariga mansub bo'lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari, ular asosida ijtimoiy xulq-atvorni ilmiy boshqarish asoslari ishlab chiqilishi lozim. Ya'ni, ishlab chiqarish ijtimoiy

psixologiyasi, boshqarish psixologiyasi, guruhlar psixologiyasi hamda ommaviy psixik jarayonlarning ta'siri masalalari o'zbek psixologlaridan o'z yechimini kutmoqdaki, ularda ilg'or fan yutuqlaridan foydalanilgan holda xududning milliy o'ziga xos qirralari ishlab chiqilishi kerak.

Psixologiya fanini rivojlantirishda judayam katta rol o'ynagan psixologlar quyidagilar: B.Ananayev, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, L.Vigotskiy, R.S.Nemov va boshqalar, shuningdek keyinchalik O'zbekistonda ham yirik olimlar etishib chiqdi. Ular jumlasiga M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, M.Vohidov, V.A.Tokareva, R.Z.Gaynutdinov, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova va boshqalarni kiritish mumkin. Yuqorida nomlari tilga olingan olimlar o'zlarining g'oyalari va milliy mafkuralar bilan yoshlarda tafakkur sifatlaridan mustaqillik, tanqidiylik kabilarni shakllantirishga e'tibor bermoqdalar. Har bir millatning o'ziga xos milliy madaniyati va ma'rifati umuminsoniy madaniyat va ma'rifatning ajralmas qismidir. Umuminsoniy sivilizatsiyaga har bir xalq o'z ulushini, hissasini qo'shgan. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan ayrim mutafakkirlar va mashhur olimlarning ta'lim-tarbiyaga doir ta'limotlari haqida ma'lumotlar mavjud. XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining taniqli rahbarlari Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda kabi ma'rifatparvarlar madaniyatni rivojlantirish uchun ma'rifatparvarlikka asoslanish, ta'limni isloh qilish zarurligi g'oyasini olg'a surib, Turkistonda ijtimoiy ong taraqqiyotini boshlab berdilar.

Ma'lumki, milliy pedagogikamiz tarixi ijtimoiy-siyosiy hayot asosida, Markaziy Osiyoda yashagan qardosh xalqlarning Berdaq, Maxtumquli, Abdurahmon Jomiy kabi shoir, adiblarning, Xorijiy SHarq va Ovrupa mamlakatlarining buyuk mutafakkir, shoir va pedagog olimlari Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumi, Jan-Jak Russo, K.D. Ushinskiy va boshqalarning pedagogik qarashlariga bog'liq holda rivojlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'zbek olimlarining psixologiya haqidagi qarashlari milliy psixologiya fanining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Ularning ilmiy izlanishlari shaxs psixologiyasi, ta'lim-tarbiya jarayoni, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. O'zbek psixologlari inson psixikasini ijtimoiy muhit, oila va ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilganlar. Bu yondashuv bugungi zamonaviy psixologiyada ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Shuningdek, ularning qarashlari asosida ta'lim jarayonida individual yondashuv, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish va sog'lom psixologik muhit yaratish kabi muhim tamoyillar shakllangan. Umuman olganda, o'zbek olimlarining psixologiyaga oid ilmiy merosi yosh avlodni tarbiyalash, ularning shaxs sifatida kamol topishi va jamiyatda munosib o'rin egallashida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.G'oziev. Umumiy psixologiya.
2. Maqsud Qodirov. Psixologiya asoslari.
3. Umumiy psixologiya fanidan oliy ta'lim darsliklari.
4. Pedagogik psixologiya bo'yicha o'quv qo'llanmalar.
5. O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishiga oid ilmiy maqolalar.
6. Yosh va pedagogik psixologiya bo'yicha tadqiqot ishlari.
7. Zamonaviy psixologik nazariyalar va metodlarga oid adabiyotlar.